Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi
To‘raqulova Maxliyo G‘ayrat qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining o‘qituvchilari
E-mail: nazokatxaitbayeva@bk.ru, temurbek.fayzullaev1996@gmail.com

“REALIYA” VA “REALIYA BIRLIK” TUSHUNCHALARI TAVSIFI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Realiya va realiya birlik tushunchalari tavsifi haqida ma’lumot berilgan. Lakunalar hamda tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miflashgan ko‘rinishlari, nutqiy etiket shakllarini tashkil etadi.

Kalit so’zlar: Realiya , realis , V.G.Krupnova, L.I.Sobolev.

Kirish: «Realiya» ko‘plikda haqiqiy, moddiy narsalar faktlarning ifodalanishidir. Xos so‘zlar muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Realiya so‘zi lotincha sifat so‘z turkumining ko‘plik soni, sredniy roddagi «realis» so‘zining ko‘plikda realiya «moddiy, ashyoviy, haqiqiy» ma’nolarini anglatib, turli o‘xshash leksik kategoriyalar ta’sirida realiyaga aylanib ketgan. Realiyalar to‘g‘risida, tarjimaning milliy o‘ziga xos tomonini ifodalash, milliy kolorit va milliy spetsifika haqida o‘tgan asrning 50-yillarida ko‘plab qiziqarli fikrlar, bahs-munozaralar yuritilgan.

L.N. Sobolev o‘sha paytlarda nafaqat “realiya” atamasining ma’nosi, balki uning definitsiyasini keltirgan. G. V.Chernov, A.V. Fedorov, Y.I. Retsker, I. Keller kabi qator tarjimashunoslar realiyalar haqida, tarjimada ekvivalentlik masalasi, xos so‘zlarning lingvistik aspektlari to‘g‘risida o‘zlarining nomzodlik dissertatsiyalari va ilmiy ishlarida turli fikrlar bildirishgan. Realiyalarni adekvat tarjima qilish tarjima nazariyasi va amaliyotida badiiy asarlardagi milliy va tarixiy o‘ziga xoslikni mukammal aks ettirish muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Tarjimada badiiy asarning

milliy o‘ziga xosligini, asl nusxaning stilistik xususiyatlarini, badiiyligini saqlab qolishda realiyalarning o‘rni va mohiyati to‘g‘risida bir qator mutarjimlar tomonidan turfa fikrlar bildirilgan. “Realiya ma’lum bir mamlakatning davlat tuzilmasi, ma’lum xalqning tarixi va madaniyati, til muamollari va hokazolarning ma’lum millat tili nuqtai nazarida aks etishidir”. [1] A.V.Fedorov realiyalar deganda, original matndagi hududiy ko‘rinishini ifodalovchi, biroq o‘zga xalq hayotida yoki boshqa tilda mazkur so‘zning aniq bir ekvivalenti bo‘lmagan so‘zlarning ifodasini nazarda tutadi. “Ekvivalenti bo‘lmagan leksik birliklar deganda”,-deb yozadi V.G.Krupnova, “narsa-predmet, jarayon voqea-hodisalarning o‘zga til tarjimasida mavjud bo‘lmagan so‘zlarning va so‘z birikmalarining chet tilidagi ko‘rinishidir».

Yuqoridagi berilgan fikrlarga to‘ldirish kiritish maqsadida L.I.Sobolev realiyalar deganda, ma’lum so‘z yoki atamaning boshqa davlat va millat tillarida mavjud bo‘lmagan, ularni ayni bir so‘z yoki tushuncha orqali ikkinchi tilga tarjima qilib bo‘lmaydigan atamalar nomini nazarda tutadi. Taniqli tarjima nazariyotchilari A. V. Fedorov, L.I.Sobolev hamda V. Rosselslarning bu boradagi fikrlariga tayangan holda bolgar olimlari S.Vlaxov hamda S.Florinlar realiya tushunchasiga yanada kengroq va batafsilroq to‘xtalib quyidagicha ta’rif beradilar:

Realiyalarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti realiyalarning mohiyatiga, albatta, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ana shuning uchun ham realiyalar to‘g‘risida gapirganda, milliy o‘ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning o‘ziga milliy va tarixiy bo‘yoqqa ega bo‘ladilar. Bu esa ularga alohida munosabatda bo‘lishlikni talab qiladi. Realiyalarni adekvat tarjima qilish tarjima nazariyasi va amaliyotida badiiy asarlardagi milliy va tarixiy o‘ziga xoslikni mukammal aks ettirish muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. «Realiyalar ma’lum xalq va

[1]Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. – Москва, 1983

millat tilining o‘zidagina aks ettiradigan narsa va predmetlar nomi, tushunchasi, shu xalqning geografik—hududiy jihatiga xarakterli bo‘lgan, uning madaniy maishiy, ijtimoiy—tarixiy xususiyatlariga xos bo‘lgan so‘z va iborasi, bir so‘z bilan aytganda, mazkur xalq vakillarining milliy, hududiy yoki tarixiy koloriti tushuniladi».

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. 3-е изд. М. Наука, 2013. –288.
2. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. Тошкент «Фан» нашриёти, 1981
3. Белянин В.П. Психолингвистика. -М., 2001. -С.103
4. Васильев С.А. Синтез смысла при создании и понимании текста. – Киев: Науковадумка, 1988. – С. 191. 113
5. Вежбицкая А. Е. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой. – М.: Русские словари, 1996
6. Верещагин В.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – Москва, 1983. -С. 214
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебник. – М., 2001
8. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. –Тошкент, 1999;
9. Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Ўқитувчи нашриёти, Тошкент 1978, 238-бет
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент: “Университет” 2000, 369-бет
11. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта, 2013.– 524 с;